



ASAKA AVTOMOBIL KORXONASINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Zohidova Muqaddasoy Arobiddin qizi

Andijon davlat pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7582685>

ARTICLE INFO

Received: 18th January 2023

Accepted: 27th January 2023

Online: 28th January 2023

KEY WORDS

Andijon viloyati, Asaka shahri, Asaka avtomobil korxonasi Tracker, Equinox, Trailblazer, Traverse, Tahoe, UzDewooAuto, GM Uzbekistan, Chevrolet, Uz SeMyung, Uz Koram, Uz Koje, Avtokomponent, Uz Dong Yang, Uz Hanwoo, Uz Dong Won Ko, Uz Dong Ju Paint», Uz Tong Hong Ko, Uz Chasis, Uz Sangwoo.

ABSTRACT

Maqolada Andijon viloyatining Asakashahrida joylashgan "UzAutoMotors" korxonasi hamda uning maydoni, quvvati, brendlari, tarixi, yetkazib beruvchilari, filliallari, xodmlari, haqida ma'lumotlar bo'lib asosan uning rivojlanish bosqichlari haqida keng ko'lamda yoritib berilgan. "UzAutoMotors" Asaka avtomobil korxonasi sifat va ishonch timsolidir. Markazi Osiyoda yagona bo'lgan bu korxonada dunyo standdartlariga javob beradigan yengil avtomobillar ishlab chiqaradi.

KIRISH. Andijon viloyati nafaqat madaniy va tarixiy joylari bilan mashhurdir, u yana O'rta Osiyoda yagona bo'lgan Asaka avtomobil korxonasi bilan nom taratgan. Asaka shahrida qariyb 11100 ta korxonalar, tashkilot va firmalar bor. Bular jumlasidan "Asaka avtomobil korxonasi" ajralib turadi.

ASOSIY QISIM. Umumiy maydoni – 192 000 kv.m, ishlab chiqarish quvvati yiliga – 250 000 ta avtomobil, "Chevrolet" brendi asosida u avval 4 xil modeldagi avtomobillar ishlab chiqariladi: Bular SPARK, NEXIA, COBALT hamda LACETTI (GENTRA).

TARIXI. "O'zDEUavto" kompaniyasi - O'zbekiston avtomobil sanoatining yetakchi va tong'ich korxonasi. Korxonalar O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan qurilgan. Zavodning ishga tushirilishi tufayli O'zbekiston jahonda o'z avtomobil sanoatiga ega bo'lgan 28 mamlakat qatoridan o'rin oldi. Asaka avtomobil korxonasi Andijon viloyatining Asaka shahrida 1994-1996-yillarda qurilgan. Avtomobil korxonasi o'rta klassdagi dvigateli sig'imi 1500 sm.kub bolgan "Neksiya", o'ta kichik klassdagi yonilg'i kam sarflovchi, dvigateli sig'imi 800 sm.kub "Tiko" yengil avtomobillari hamda furgon tipidagi yetti o'rindiqli, dvigateli sig'imi 800 sm.kub bolgan "Damas" miniavtobuslarni ishlab chiqara boshladi. "Damas" miniavtobuslari 1996-yil 25 martdan, "Tiko" 1996-yil iyun oyining o'rtalaridan, "Neksiya" avtomobili esa 1996-yil iyul oyining o'rtalaridan ishlab chiqarila boshlandi.



UZ-AVTO MOTORS YETKAZIB BERUVCHILARI. 100 dan ortiq, shu jumladan sub yetkazib beruvchilar. Asosiylari — «GM Powertrain Uzbekistan», «Uz SeMyung», «Uz Koram», «Uz Koje» «Avtokomponent», «Uz Dong Yang», «Uz Hanwoo», «Uz Dong Won Ko», «Uz Dong Ju Paint», «Uz Tong Hong Ko», «Uz Chasis», «Uz Sangwoo», «O`zAuto Austem», «Uz Minda», «Jizzax Akkumulyator Zavodi», «Uzeraealernator», «Uzerae Climate Control», «Uzeraeacable», «Uz Hanwoo Engineering», «Kwangin Autosystems», «Avtooyna» va boshqalar.



1-rasm.

RIVOJLANISH BOSQICHLARI. 2018 yil dekabr oyi - Chevrolet Tracker avtomobili taqdim etildi. may oyi - GM Uzbekistan Asaka avtomobil korxonasi ishlab chiqarish jarayonlariga sifatni integratsiya qilingaligini belgilab beruvchi BIQ-III (Built-In Quality) sertifikatini qo'lga kiritdi. 2017 yil may oyi - Qozog'istondagi Kustanay shahrida T250 avtomobilini yig'ishning boshlanishi. may oyi - Uzaytirilgan yuk bo'limli Labo avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. aprel oyi - Yangi, ikkinchi avlod Malibu avtomobilini ishlab chiqarishga tushirildi, 2016-yil may oyi - Neksiya (T250) avtomobilining taqdimoti. Aprel oyi - Captiva (SORP) avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. 2015-yil oktabr oyi - Moskva shahrida Ravon brendining taqdimoti. Iyul oyi - Labo tijorat avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. dekabr oyi - GBJ bilan Lacetti avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. 2014 yil mart oyi - Chevrolet Orlando avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. Yanvar oyi - Pitnak shahrida «GM O'zbekistan» filialining ochilishi. 2013 yil noyabr oyi - Lacetti II (Gentra) avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. 2012 yil sentabr oyi - Chevrolet Cobalt avtomobilini seriyali ishlab chiqarish boshlanishi. 2012 yil mart oyi - Chevrolet Malibu avtomobilini. yirik tarmoqli yig'ish boshlanishi 2011 yil sentabr oyi - yangilangan Chevrolet Captiva avtomobilini yirik tarmoqli yig'ish boshlanishi. aprel oyi - 1 500 000-chi avtomobilining ishlab chiqarilishi. aprel oyi - Spark avtomobili «Shahar avtomobillari» nominatsiyasida «Rossiyada 2011 yil uchun yilning eng yaxshi avtomobili» bo'ldi. 2010 yil avgust oyi - Spark avtomobilini seriyali ishlab chiqarish boshlanishi. 2008 yil noyabr oyi - bir millioninchi avtomobilining chiqarilishi. Noyabr oyi - Lacetti avtomobilini seriyali ishlab chiqarish boshlanishi. Iyun oyi - Nexia N150 avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. Mart oyi - «GM Uzbekistan» qo'shma korxonasining tuzilishi. 2007 yil dekabr oyi - EURO III motorlari bo'lgan Nexia va Matiz



avtomobillarini ishlab chiqarish boshlanishi. Oktabr oyi – Tacuma, Epica va Captiva avtomobillarini yirik tarmoqli yig'ish boshlanishi. Iyul oyi – 750 000-nchi avtomobilning chiqarilishi. may oyi – O'zbekiston Respublikasining hukumati va GM Daewoo Auto&Technology kompaniyasi o'rtasida strategik hamkorlik to'g'risida bitim imzolangan. 2006 yil fevral oyi – B100. o'rniga Damas B150 avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. 2005 yil oktabr oyi – 500 000 chi avtomobilning chiqarilishi. 2004 yil dekabr oyi – dvigatelning hajmi 1,0 litr va avtomatik uzatmalar qutisi bo'lgan Matiz Best avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. iyun oyi - sifati, yetakchiligi, ilg'or texnologiyalari va innovatsiyalari uchun "International Quality Summit - New York" xalqaro sovrinning qo'lga kiritilishi. 2003 yil aprel oyi - sifat tizimining ISO: 9001: 2003 yil avgust oyi - Lacetti avtomobilini yirik tarmoqli yig'ish boshlanishi. mart oyi – Matiz avtomobili Rossiya Fidiratsiyasi bozorida «Yil avtomobili» nomiga sazzovor bo'ldi. 2002 yil avgust oyi – DOHC dvigateli bilan avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. 2001 yil avgust oyi - Matiz avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi. may oyi – 250 000-nchi avtomobilning chiqarilishi.

- 2000-yil xalqaro standartga muvofiqligi yuzasidan sertifikatlanishi.
- 1999-yil dekabr oyi - sifat tizimining ISO: 9001:
- 1998-yil xalqaro standartga muvofiqligi yuzasidan sertifikatlanishi.
- 1996-yil iyun oyi – Tico va Nexia avtomobillarini ishlab chiqarish boshlanishi. mart oyi – Damas avtomobilini ishlab chiqarish boshlanishi.
- 1994-yil iyun oyi - Asaka shahrida zavod qurilshining boshlanishi.
- 1993-yil mart oyi - «UzDEUavto» QK ning davlat ro'yxatidan o'tkazilishi.
- 1992-yil iyun oyi - prezident I. Karimovning Koreyaga tashrifi va Daewoo Motor ga tashrif buyurishi.



2-rasm.

FILIALLARI. Xorazm viloyati, Pitnak shahri. Uning barcha uskuna va jihozlari Koreya, Yaponiya, Germaniya, Shvetsiya, Italiya mamlakatlarida ishlab chiqarilgan ilg'or avtomatika va texnologiyalardan iborat.

MAHSULOTI. Hozirgi paytda «UZAUTO MOTORS» AJ tomonidan «Chevrolet» brendi ostida – Spark, Nexia, Cobalt, Lacetti (Gentra), Damas, Labo, Malibu, Tracker, Equinox, Trailblazer, Traverse va Tahoe kabi avtomobil modellari xaridorlarga yetkazib berilmoqda.



(3-rasm).

XODIMLARI. «UZAUTO MOTORS» xodimlari soni 2022 yil 1 may holatiga ko'ra 11 124 kishidan ortiqni tashkil etadi.

JAMIYAT FAOLIYATINING MAQSADI. Avtomobillarni ishlab chiqarish, yig'ish va sotish orqali foyda olishdan iborat.

JAMIYAT FAOLIYATINING PREDMETI. Avtomobillarni ishlab chiqarish, yig'ish va sotish.

- avtomobil detallarini va extiyot qismlarni ishlab chiqarish va sotish.
- eksport va import operatsiyalarini, hamda vositachilik amaliyotlarini amalga oshirish.
- marketing.
- injiniring xizmatlarini ko'rsatish.
- qarz berish, shu jumladan Uchinchi shaxslardan va davlat organlaridan qarz olish.
- yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishishi uchun zarur bo'lgan qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa har qanday faoliyat turlarini amalga oshirish.

BREND. Chevrolet.

HAMKORLIK. Mahalliyashtirish.

BO'LIMLAR. Kompaniya haqida, kompaniya strukturasi, rahbariyat, asosiy ko'rsatkichlar, korxonada faoliyati, normativ-huquqiy hujjatlar, muhim faktlar, rivojlanish tarixi, sifat sertifikatlari, bo'sh ish o'rinlari.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH, M, Mirziyoyevning virtual qabulxonasi.
2. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali.
3. Resurs bozori ma'lumoti va resurs markazi.